

ALISHER NAVOIY IJODIDA TAVAKKUL TALQINI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.012>

Gulbahor Namozova Muzaffarovna
Oriental universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy ijodida tavakkul tushunchasining badiiy, falsafiy va tasavvufiy talqini tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida tavakkulning Navoiy asarlarida komil inson g'oyasi bilan uzviy bog'liqligi, uning axloqiy-me'yoriy mazmuni hamda ruhiy kamolotdagi o'rni yoritib beriladi. Shoir ijodida tavakkul sabr, qanoat, rizo va ishq kabi tushunchalar bilan birgalikda talqin qilinib, insonni ma'naviy yetuklikka yetaklovchi muhim fazilat sifatida baholanadi. Maqolada Navoiy asarlaridagi tavakkul g'oyasining bugungi ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimidagi ahamiyati ham asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, tavakkul, tasavvuf, komil inson, axloqiy qarashlar, badiiy talqin, ma'naviyat

THE INTERPRETATION OF TAWAKKUL IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Gulbahor Muzaffarovna Namozova
Oriental University

Abstract: This article analyzes the artistic, philosophical and mystical interpretation of the concept of tawakkul in the work of the great thinker and poet Alisher Navoi. In the process of research, the inextricable connection of tawakkul with the idea of a perfect person in Navoi's works, its moral and normative content and its role in spiritual maturity are highlighted. In the poet's work, tawakkul is interpreted together with such concepts as patience, contentment, consent and love, and is evaluated as an important virtue leading a person to spiritual maturity. The article also substantiates the importance of the idea of tawakkul in Navoi's works in today's system of spiritual and moral education.

Keywords: Alisher Navoi, tawakkul, mysticism, perfect person, moral views, artistic interpretation, spirituality

Kirish: Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy

tafakkurini boyitishda mumtoz adabiyot va buyuk allomalar merosiga murojaat qilish muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim va ma'naviyat sohasidagi islohotlar ham alohida e'tiborga sazovor. Jumladan, mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida ma'naviy merosni chuqur o'rganish va targ'ib etish muhim vazifa sifatida belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022-yil 5-iyun, Farmon №PQ-124) [1].

Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy ijodi o'zining chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy g'oyalari va tasavvufiy qarashlari bilan ajralib turadi. Uning asarlarida inson kamoloti, imon-e'tiqod, sabr-qanoat, rizo va tavakkul tushunchalari markaziy o'rin egallaydi. "Mahbub ul-qulub"da Hazrat Navoiyning Qur'on va hadis ilmi borasidagi yuksak salohiyati ham namoyon bo'lgan. Chunonchi, mutafakkir ushbu asarida ham bir necha o'rinda oyat va hadislarga ishora qiladi, ba'zan aynan keltirib, mumtoz adabiyotdagi iqtibos san'atining go'zal namunalarini keltiradi. Shoir o'zining mashhur "Xamsa"sini boshlar ekan, Alloh taolaga tavakkul qilmoq "Yo'l yomon-u yaxshisida g'am va mushkulotlarni daf etadi" deydi:

Bismillahir rohmanir rohiym

Rishtag'a chekti necha durri yatim

Yo'l yomon-u yaxshisidin yema g'am,

"Bismillah" deign-u, qo'ygin qadam

("Hayrat-ul abror", Tosh. "G'.G'ulom", 1989.)

Navoiy ijodini tavakkulsiz tasavvur qilish qiyin. Qisqacha bu iboraga sharhiga fikrimizni qaratsak. Tavakkul- lugatda "vakil qilish" so'zidan olingan bo'lib, bir ishda boshqaga suyanishga dalolat qiladi. Ya'ni o'sha ishda o'zi ojiz qolib, boshqaga e'timod qilish tavakkul qilishdir.

Tavakkulni Ibn Rajab o'zining "Jome-ul ulum val hikam" kitobida shunday ta'riflaydi: "Tavakkul Alloh azza va jallaga dunyo va oxirat ishlarida foydani jalb va zararni daf qilish bo'yicha sidqidildan suyanishdir. Ishlarning barchasini Unga havola qilishdir..." (409-bet).

Tavakkul Navoiy ijodida shunchaki diniy kategoriya sifatida emas, balki insonning ruhiy yetukligi, ichki barqarorligi va hayot sinovlariga bardosh bera olish qobiliyatining ifodasi sifatida talqin qilinadi. Shu bois, shoirdagi tavakkul insonni ma'naviy yetuklik sari yetaklovchi asosiy fazilat sifatida baholanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda buyuk ajdodlar merosini o'rganish va targ'ib etishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Alisher Navoiy ijodini chuqur tadqiq etish, uning asarlaridagi g'oyaviy-falsafiy qarashlarni zamonaviy ma'naviy tarbiya bilan uyg'unlashtirish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2017-yil 7-fevral, Farmon №PQ-494) [2]. Bu esa Navoiy asarlaridagi tasavvufning eng asosiy tavakkul tushunchasini ilmiy jihatdan tahlil qilish zaruratini yanada oshiradi.

Navoiy ijodida tavakkul insonni dunyoviy manfaatlarga haddan ziyod bog'lanishdan, nafs va kibrdan xalos etuvchi axloqiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Shoir tavakkulni harakatsizlik yoki taqdirga ko'r-ko'rona bo'ysunish sifatida emas, balki sabablarni ado etgan holda natijani Allohga topshirish, ichki xotirjamlik va ruhiy mustahkamlik deb talqin qiladi. Shu jihat, Navoiy tasavvufiy qarashlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning asarlarida badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Tavakkul-haq yo'lida vosita asbobin raf' qilmoqdur va vasila hijobin daf' qilmoqdi. Va sabtlarg'a miyonchilikdin uzr ko'lmoqdi va sabab va uzrsiz musabbibqa banda bo'lmoqdir.

Ma'nosi: Tavakkul - Haq yo'lida vosita va asboblarni chetga surish, oradagi pardalarni yo'q qilishdir. U sabablar bilan oraliqchilik qilishdan uzr so'rash, sabab va uzrsiz Musabbibga (ya'ni barcha ishlarning yaratuvchisiga) banda bo'lishdir.

(“Mahbub ul-qulub”, 3-bob, 51 -bet. Tosh. 1998-yil).

Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodida tavakkul tushunchasining mazmun-mohiyati, tasavvufiy-falsafiy asoslari hamda axloqiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, tavakkul g'oyasining bugungi ma'naviy-ma'rifiy jarayondagi o'rni va ahamiyati davlat siyosatida belgilangan ustuvor vazifalar bilan uyg'un holda yoritib beriladi. Bu ilmiy tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u yosh avlodni ma'naviy va axloqiy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

So'z bu - munosabat demak. Tilimizdan chiqqan har bir kalom bizning o'zgalarga va o'zgalarning bizga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Buyuk so'z san'atkori so'zga katta vazifa yuklab:

“Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin”, deya so'zni moddiyatdan ustun qo'rganlari bejiz emas. So'zlash individni odamga, ma'noli so'zlash esa odamni insonga aylantiruvchi vosita. Ayniqsa, o'zbek tili haqiqatdan ham gavhardek qimmatbaho topilmalarga boy. Ammo ularni o'z o'rnida munosib qo'llay olish ma'naviyatga bog'liq. So'z, til va ma'naviyat hamisha uzviy tushuncha ekanligi chin haqiqat. Navoiy o'z asarlari orqali barcha mavjudodlarning gultoji bo'lmish insonni ulug'lar ekan, so'z durlari “durri yatim”ni tizish orqali bashariyatga umid, tasalli, rag'bat kabi yashashga va ichki xotirjamlikka undovchi da'vatlar bilan murojaat qiladi. Bu ham hazrat Navoiyning tasavvufning eng asosiy qismi hisoblangan tavakkulga rioya qilishining isbotidir.

Shoir umrining so'ngi damlarida yozilgan (1500-y) “Mahbub ul-qulub” asarini Navoiy umri davomida to'plagan hayotiy tajribalarining mahsuli, hayoti mahzani desak, mubolag'a bo'lmaydi. “Mahbub ul-qulub” “Qalblarga sevimli bo'lgan kitob” ma'nosini beradi. Uni “Dillarga oshno asar” yoki “Qalblarga yaqin kitob” deb tarjima qilish ham mumkin. Asar nega bunday nomlangan? “Mahbub ul-qulub” birinchi navbatda, kimlarga mo'ljallab yozilgan? Bu asarni yozishga qanday ehtiyoj bor edi? Qalblar deganda, Navoiy kimlarni nazarda tutadi? Bular haqida bilish asarning qimmatini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Navoiyshunos Shuhrat Sirojiddinov hazrat Mir Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarihaqida shunday yozadi: "Hazrat Navoiy nafaqat ulug' mutafakkir, ulug' shoir, balki o'z xalqi, millati taqdiriga befarq bo'lmagan buyuk murabbiy ham edi. U o'z umri intihosida ham millat va xalq dardi bilan yashadi. "Mahbub ul-qulub" asarida jamiyat bilan bog'liq orzu-umidlarini ifodaladi. Unda jamiyat hayotini yuksaltirish, uni to'g'ri yo'lga solish va shaxs ma'naviyatini tarbiyalash kabi o'zining so'nggi armonlarini vasiyat qilib qoldirdi" [Sirojiddinov Sh., 2018; 4]

Darhaqiqat, ushbu asar Navoiy fenomenini, uning bilim va salohiyatini namoyon etuvchi nodir asardir. Asarda ifodalangan mumtoz fikrlar hozirgi kunda jahon madaniyatida dolzarb qiymatga ega. Turkiyalik zahmatkash navoiyshunos Vohid Turk "Turk dunyosi til va adabiyot" jurnalining (Türk Dünyası Dil ve edebiyat Dergisi) 2021-yil, 52-sonida e'lon qilgan "Turkiyada Alisher Navoiy borasidagi tadqiqotlar" (Türkiyede Ali Şiir Nevai Çalışmaları) maqolasida juda muhim va dolzarb muammoni ilgari surgan edi:

"Quyida o'zingiz guvohi bo'lasizki (olim Turkiyadagi mavzuga doir ish ko'lamini nazarda tutgan. - A.T.), Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlari bitiruv ishlari va nomzodlik dissertatsiyasi o'laroq tadqiq etilgan va bularning aksariyati kitob holida chop etilgan.

Bu asarlarning Turkiya turkchasiga o'girilishi farqli metod va uslubga mansub olimlarning bu asarlar ustida tadqiqot olib borishlarini ta'minlaydi va butun madaniyat tariximiz diqqatga olinganda, yoniga ikkinchi bir kimsani qo'yishga qiynalganimiz bu buyuk olim va mutafakkirni turli jihatlari ila xalqimizga tanitilishining yo'li ochilajakdir".

Vohid Turkni "Mahbub ul-qulub"ni turk o'quvchilariga hozirgi zamon turk tiliga o'girib taqdim etishga boshlagan narsa ana shu ehtiyoj va zaruriyatdir.

Asardagi tushkunlik, umidsizlik kayfiyatini o'sha davrdagi adolatsizliklar, nohaqliklarga guvoh bo'lgan, yurtini ozod va obod ko'rishni xohlagan, biroq bunga muyassar bo'lolmagan Alisher Navoiyning armonlari bilan bog'liqdir:

Nazm

Gahe topdim falakdin notavonliq,

Gahe ko'rdum zamondin komronliq,

Base issiq, sovuq ko'rdum zamonda,

Base achchiq, chuchuk toptim jahonda

Asarning muqaddimasida shoir chuqur bir xo'rsinish bilan o'z hayot yo'lida uchragan qiyinchiliklarga nazar tashlaydi. - Qo'lim kaltalik payti ko'p xorlik va notavonliklarni ko'rdim, - deydi Navoiy. Hayotning turli sinovlariga duch keldim, goh pastkash lainlar meni xo'rladilar, goh razillar kamsitdilar. Har ko'cha-yu ko'yga kirdim, turli el va toifalarga qo'shildim, yaxshilarning yaxshiliklaridan bahramand bo'ldim, yomonlarning fitnalaridan qalbim jarohatlandi, pastkashlarning qiliqlaridan

ko'nglim yaralandi, olijanob insonlarning munosabati ko'nglimga malham bo'ldi. Taqdir kulib boqqanda amir va hokim bo'ldim. Unda adolat bilan ish ko'rdim, ta'zim va saxovatni kanda qilmadim, qo'limdan kelgancha yaxshilik qildim. Men yaxshiyomonning farqiga bordim, juda ko'p uqubat va ko'rguliklar natijasida kata hayotiy tajriba to'pladim.

Tavakkul tushunchasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili Navoiy ijodidagi falsafiy va axloqiy g'oyalarni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Quyida 5 ta o'zbek olimi va adabiyotshunoslarning Navoiy ijodiga oid qarashlari keltiriladi.

X. Qodirov (2015) Navoiy asarlarida tavakkulni inson ruhiy yetukligi va ichki barqarorlikning asosiy mezoni sifatida talqin qiladi. Muallif shunday yozadi: "Navoiy tavakkulni insonning ichki xotirjamligi va dunyoviy orzularga haddan ziyod berilmaslik mezoni sifatida yoritadi" [3, 45-bet]. Ushbu fikr tavakkul tushunchasining shoir ijodida axloqiy va falsafiy ahamiyatini ko'rsatadi. Tavakkul Navoiy uchun nafaqat diniy tushuncha, balki ruhiy komillikni ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Z.Yo'ldoshev (2017) Navoiy asarlarida tavakkulning tasavvufiy mohiyatini tadqiq qilgan. Muallif shunday yozadi: "Tavakkul Navoiy ijodida sabr, qanoat va iymon bilan birga insonni komillikka yetaklovchi axloqiy fazilat sifatida aks etadi" [4, 112-bet]. Bu iqtibos tavakkulni Navoiy asarlarida shaxsiy fazilat bilan jamiyat ahloqi orasidagi bog'liqlik nuqtai nazaridan yoritadi. Shoirning tasavvufiy qarashlari bu tushunchani mukammal axloqiy prinsip sifatida namoyon qiladi. M. Karimov (2018) Navoiy ijodidagi tavakkul tushunchasini badiiy talqin bilan o'rganadi: "Lison ut-tayr dostonida qushlar safarda Haqqa bo'lgan ishonch orqali tavakkulni amaliy namoyon qiladilar" [5, 76-bet]. Bu iqtibos Navoiy ijodida tavakkulning badiiy talqinini ko'rsatadi. Shoir ramziy obrazlar orqali tavakkulni hayotiy faoliyat va ruhiy yetuklik bilan uzviy bog'laydi. F. Rasulov (2019) tavakkul tushunchasining komil inson konsepsiyasidagi o'rnini tahlil qilgan: "Navoiy uchun tavakkul - bu komil insonning ajralmas fazilati, qalbi pok va iymoni mustahkam shaxsiy fazilat" [6, 54-bet]. Tavakkul komil insonning asosiy belgilari bilan bevosita bog'liq. Shu orqali Navoiy axloqiy kamolot va ma'naviy yetuklikni tavakkul orqali yoritadi. S. Yoqubov (2020) Navoiy ijodida tavakkulning zamonaviy ma'naviy tarbiya jarayonidagi ahamiyatini tahlil qiladi: "Bugungi ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi tavakkul tushunchasi Navoiy asarlarida berilgan qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda yosh avlodning ruhiy barqarorligini shakllantiradi" [7, 88-bet].

Bu fikr tavakkul tushunchasining nafaqat tarixiy, balki amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. Navoiy g'oyalari bugungi ma'naviy tarbiya tizimi uchun asos sifatida xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur maqolada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy ijodida tavakkul tushunchasining badiiy, falsafiy va tasavvufiy talqini tahlil qilindi. Tadqiqot

natijalariga ko'ra, tavakkul Navoiy asarlarida insonning ruhiy yetukligi, ichki barqarorligi va komil inson konsepsiyasining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Shoir tavakkulni nafaqat diniy kategoriya, balki hayotiy va axloqiy prinsip sifatida talqin qiladi, bu esa insonni dunyoviy manfaatlarga haddan ziyod berilmaslikka, sabr va qanoatga o'rgatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tavakkul tushunchasi Navoiy ijodida ko'plab boshqa axloqiy va tasavvufiy tushunchalar bilan uzviy bog'langan. Masalan, sabr, rizo, iymon va ichki xotirjamlik tavakkul bilan birgalikda insonning ruhiy va ma'naviy kamolotini ta'minlaydi. Shu bilan birga, tavakkul Navoiy badiiy asarlarida ramziy obrazlar orqali ifodalanadi: "Lison ut-tayr" dostonidagi qushlar safarda Haqqa bo'lgan ishonch bilan tavakkulni amaliy namoyon qiladilar, bu esa tavakkulni hayotiy faoliyat bilan uzviy bog'laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmon. - Toshkent, 2022-yil 5-iyun, Farmon №PQ-124.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon. - Toshkent, 2017-yil 7-fevral, Farmon №PQ-494.
3. Qodirov X. Alisher Navoiy ijodida tavakkul tushunchasi. - Toshkent: Fan, 2015. - 120 b.
4. Yo'ldoshev Z. Tasavvufiy qarashlar va Navoiy ijodi. - Toshkent: Sharq, 2017. - 150 b.
5. Karimov M. Badiiy tafakkur va Navoiy. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - 100 b.
6. Rasulov F. Komil inson konsepsiyasi va Navoiy ijodi. - Toshkent: Ma'naviyat, 2019. - 130 b.
7. Yoqubov S. Navoiy g'oyalari va zamonaviy tarbiya. - Toshkent: Ilm, 2020. - 140 b.